

shoir asarlari hamda foydalangan buyumlari bilan yaqindan tanishtirish dasrlarning qiziqarli va manfaatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa: Bundan ko'rinib turibdiki, bugun Qo'qon va Xiva xonlarining, o'tmish ajdodlarining qabrlarini ziyorat qilish uchun borganlar nafaqat ularni ziyorat qiladilar, balki yuksak hunarmandchilik namunalaridan ham bahramand bo'ladilar. Azaldan hunarmandlar shahri hisoblanmish azim Qo'qonning usta ijodkorlari tomonidan ishlangan asl san'at asarlari bilan tanishadilar. Bu orqali yosh avlodda yuksak vatanparvarlik, faxr-u iftixor, ajdodlarga hurmat va ziyorat odobi ham shakllanishiga erishiladi. Shunday qilib, adabiy turizm nafaqat bilim olishda balki shaxsning barcha jihatlarini rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu tajribalar orqali yosh avlodning adabiyot va madaniyatga nisbatan qiziqishi ortadi hamda ular kelajakda yanada ma'rifatli shaxslar bo'lishlariga yordam beradi.

Keyingi yillarda prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ulkan bunyodkorlik ishlari bizning Qo'qon shahrimiz tuprog'ida yotgan shoir va yozuvchilarning, ilm va madaniyat xodimlarining abadiy maskanlarini obod etish bilan davom ettirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, Qo'qonda qanchadan qancha adabiyot darg'alarining uy muzeylari e'tibor va ta'mir talab holda yotibdi. Shu bilan birga, maktablarga ichki turizm uchun alohida avtobuslar qo'yilsa, nazorat uchun yana bir kishi ajratilsa, o'qituvchilar ham bunday manfaatli ekskursiya darslarni tashkilashda aslo qiyinchiliklarga duch kelmas edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 173-bet.
2. [https://nrm.uz/contentf?doc=574188_20192025_yillarda_o%E2%80%98zbekiston_respublikasida_turizm_sohasini_rivojlantirish_koncepciyasi_\(o%E2%80%98r_prezidentining_05_01_2019_y_pf-5611-son_farmoniga_1-ilova\)](https://nrm.uz/contentf?doc=574188_20192025_yillarda_o%E2%80%98zbekiston_respublikasida_turizm_sohasini_rivojlantirish_koncepciyasi_(o%E2%80%98r_prezidentining_05_01_2019_y_pf-5611-son_farmoniga_1-ilova))
3. Mirzayev M., Aliyeva. M. Turizm asoslari. Toshkent, 2011.
4. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/kokand>
5. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/khiva>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Avaz_O%CA%BBtar_uy-muzeyi
7. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276
8. Tursunova, N. (2025). Alisher Navoiy an'alarining Muqimiy ijodidagi takomili. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 260-263.
9. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 187-191.

ADABIY MEROSNI SAQLASH ORQALI ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

Melikuziev Umarjon

Qo'qon DU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoqon shahrining turistik quvvati va shahardagi turistik ob'ektlarning qisqacha tarixi va tahlili haqida ma'lumot berilgan. Adabiy turizmning rivojidagi imkoniyatlar va Mirzo Hayrullo Xo'qandiy adabiy me'rosining turizm sohasidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Adabiy turizmni yanada rivojlantirish uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: Turizm, madrasa, adabiy turizm, muzey, Mirzo Xo'qandiy, hattot, arabiy yozuv

Kirish: Markaziy Osiyo tuproqlari qadimdan san'atkorlar va shoirlar yurti va ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan. Zaminimizdan etishib chiqqan buyuk fikr egalarining bizga qoldirgan ulkan adabiy va ilmiy me'rosining ma'lum bir qismi, garchi turli bosqinlar davrida nobud qilingan, olib ketilgan bo'lsa-da, hozirgi kungacha etib kelganlarining salmog'i ham kishini hayratga soladi. Mazkur noyob xazinalarni ko'z qorachig'idek asrash, saqlash, o'rganish va avlodlarga butunicha

etkazish elkamizga ortilgan muhim vazifa hisoblanadi. Zero bizning dunyoga ko'z-ko'z qilsak arzigulik buyuk tariximiz va qadimiy obidalarimiz bor.

Hozirgi kunda yurtimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat iqtisodini rivojlantirish shu bilan birga o'lkani butun dunyoga tanitish ishlarida turizm soxasining alohida o'rni bor. "Turizm nafaqat o'tmishni o'rganish, o'zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning ma'daniy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shuningdek, u katta biznes hamdir" [1,6] 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori va joylarda turizm sohasida olib borilayotgan ishlarning barchasi yurtimizga kelayotgan sayyohlar oqimini yanada ko'paytirishga, tarixiy shaharlarimizdagi sayyohlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning yanada kengayishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism: Azaldan barcha yurtlarda ilm-ma'rifatni e'zozlagan podshohlar o'zlariga poytaxt qilgan shaharlarda go'zal me'morchilik obidalarini bunyod ettirgan hamda adabiyot va san'atga homiylik qilgan. Markaziy Osiyo hududi Temuriylar davridan keyin Shayboniylar hukmronligi o'rnatilgandan so'ng xonliklarga bo'linib ketgani barchamizga ma'lum. Xonliklarning poytaxt shaharlari adabiy, ilmiy va me'moriy yodgorlik me'roslarini o'zida saqlagan bo'lishi tabiiy. Buxoro va Xiva shaharlarining bu xususdagi maqomlari o'z o'rnida, albatta. Lekin Qo'qon shahriga keladigan bo'lsak, tarixning butunicha etib kelmagani og'riqli joyimizdir.

Qo'qon shahridagi tarixiy obidalar va adabiy me'roslarning ko'p qismi Rossiyaning Markaziy Osiyoga bostirib kelishi va Chor Rossiyasi davrida yo'q bo'lib ketdi. Vayron etilgan ketgan va hozirda saqlanib qolgan inshootlar salmog'ini birgina madrasalar misolida ko'rib chiqsak. "XIX-asrda Qo'qon shaxrida oliy o'quv yurti sifatida tashkil qilingan madrasalar ko'p edi. Ular shuningdek tarixiy me'moriy yodgorliklar hamdir." [2,218] Haydarbek Bobobekovning "Qo'qon tarixi" asaridan olingan ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahrida 40 tacha madrasa bo'lgan degan fikrga kelamiz. Qo'qon shahri tarixi haqidagi birmuncha mufassal asar hisoblangan Yahyoxon Dadaboev (Muhammad Yahyoxon Ho'qandiy) ning "Xo'qandi latif manoqiblari" kitobida "Xo'qand shahrida 60 atrofida madrasa bo'lgan" [3,53] ligi haqida ma'lumot berilgan. Lekin bulardan hozirgi kunga kelib, 6 tasigina saqlanib qolgan xolos. Quyidagi jadvalda madrasalarning nomi va ba'zi ma'lumotlariga to'xtalib o'tamiz.

Nº	Madrasaning nomi	Qurilgan yili	Kim tomonidan qurilgan	Bosh mudarris
1.	Madrasai Hishtin	1729-yil	Abdurahimbiy Shoxruhbiy o'g'illari	Domullo Muhyiddin Oxund binni Qutbiddin A'lam
2.	Madrasai Qalmoq	1741-yil	Abdulkarimboy Shohruhbiy o'g'illari	Domullo Solihjon Oxund Mullo Obidjon mahdum o'g'illari
3.	Madrasai Chin	1760-yil	Erdonabiy Abdurahimxon o'g'illari	Domullo Muhammadjon Mahzun Haydar hoji o'g'illari
4.	Madrasai Sulaymoniya	1763-yil	Norbo'tabiy Abdurahimxon o'g'illari	Domullo Pirmuhammad a'lam Qulmuhammad o'g'illari

5.	Madrasai Xon Xoja	1780-yil	Xon Xoja otaliq Yusufali Xoja Eshon o'g'illari	Shamsiddin Porso Najmiddin o'g'illari
6.	Madrasai Hakimto'ra	1795-yil	Ma'sumxon to'ra	Sayyid Azlarxon Eshon binni Sayyid A'loxon Eshon
7.	Madrasai Mir	1798-yil	Norbo'tabiy Abdurahmonxon o'g'illar	Muhammad Yaqub Ohund binni Muhammad Xoja Eshoniy Sadr hazratlari
8.	Madrasai Mirbo'tabiy	1799-yil	Mirbo'tabiy	Mulla Abdulhakim Oxund Mullo Abduhalim choyfurush o'g'illari
9.	Madrasai Buzrukxoja Eshon	1801-yil	Buzrukxoja eshon Hasanxoja eshon o'g'illari	Mullo Ansoriddin Domullo Mullo Sadriddin O'roq o'g'illari
10.	Madrasai Ming oyim	1802-yil	Faxrunniso Oyim	Islomxoja domullo Imomxoja o'g'illari
12	Madrasai Buzurgon	1802-yil	Pirmuhammad Buzurgon Muslim karvon o'g'illari	Ahrorxon domullo Abrorxon A'lam domullo o'g'illari
13.	Madrasai Sayyidqulibek	1802-yil	Sayyidqulibek Imomqulibiy o'g'illari	Mullo Rabbonquli Mahzum mullo Rabbimquli o'g'illari
14.	Madrasai Hojibek	1803-yil	Hojibiy	Mavlaviy Yo'ldosh Muhammad Umar o'g'illari
15.	Madrasai Turk	1804-yil	Xoliqnazar Turk G'oyibnazar Og'aliq o'g'illari	Mullo Ashraf Oxund Sharofiddin Mahzum o'g'illari
16	Madrasai Hammom	1804-yil	Mirzarahim Parvonachi Mirzahakim o'g'illari	Domullo Avliyoxon Eshon Mahmudxon A'lam o'g'illari
17.	Madrasai Oxund Devonbegi	1805-yil	Holmuhammad Ohund Devon Shermuhammad o'g'illari	Mirmuhammad A'lam Domullo Mirmuhammad Maxzum o'g'illari
18.	Madrasai Daloilxona	1806-yil	Sayyid Muhammad Olimxon Norbo'tabiy o'g'illari	Domullo Valimuhammadxon Domullo Do'stmuhammadxon o'g'illari

19.	Madrasai Oftob oyim	1806-yil	Oftob oyim	Mullo Sarvariddin Oxund Domullo Sadriddin o'g'illari
20.	Madrasai Oliy Bolo	1808-yil	Sayyid Muhammad Olimxon Norbo'tabiy o'g'illari	Mullo Shermuhammad Oxund Qulmuhammad Muftiy o'g'illari
21.	Madrasai Oliy Poyon	1815-yil	Muhammad Umarxon Norbo'tabiy o'g'illari	Domullo Zikriyoxon Maxzun Domullo Yahyoxon oxund o'g'illari
22.	Madrasai Jome'	1818-yil	Sayyid Muhammad Umarxon Norbo'tabiy o'g'illari	Zokirxoja eshon Shayxulislon Doniyolxoja eshon o'g'illari
23	Madrasai Muhammadquli Bahodir	1820-yil	Muhammadquli Bahodir Tangriquli Ponsod o'g'illari	Domullo Muhammad Rahim Qori Muhammad Karim Oxund o'g'illari
24.	Madrasai Ayyubxo ja eshon	1822-yil	Ayyubxoja eshon Solixoja eshon Do'stixudo o'g'illari	Domullo Xojamberdi A'lam Egamberdi Oqsoqol o'g'illari
25	Madrasai Xoja Dodhoh	1822-yil	Baxodirxoja Orifxoja yasovulboshi o'g'illari	Mirzo Yo'ldosh domullo Isfaragiy mullo Safar najjor o'g'illari
26.	Madrasai Haqqulibek	1825-yil	Xaqqulbek Mingboshi	Domullo Sadiriddinxon mahzum Domullo Nosiriddinxon Oxund o'g'illari
27.	Madrasai dahma	1825-yili	Rahmonqulibiy otaliqning qizlari Mohlaroyim (Shoira Nodirabegim)	Domullo Muhammad Rajab Oxund Mullo Muhammad Razzoq devonbegi o'g'illari
28.	Madrasai Tunqator	1826-yil	Muhammad Qodirbek Tunqator Muhammad Yusuf Mingboshi o'g'illari	Domullo Fazliddinxon Muftiy Mullo Shamsiddinxon Mudarris o'g'illari
29.	Madrasai Berdiquilibek	1826-yil	Berdiquilibek Idrisqulibiy otaliq o'g'illari	Sayyid Afzalxon Ohund Sayyid Ashrafxon Eshon o'g'illari

30	Madrasai Zinbardor	1827-yil	Muhammad Yusufbek Miton	Mullo Islom Mirzo Domullo usmon A'lam o'g'illari
31.	Madrasai Bekbo'taboy	1827-yil	Bekbo'taboy Dodhoh Boybo'taboy o'g'illari	Domullo Orifxon a'lam Mulla obidxon o'g'illari
32.	Madrasai Muhammadalixon	1829-yil	Muhammad Alixon Amir Umarxon o'g'illari	Domullo Holmuhammad Oxund domulla Nurmuhammad Sudur o'g'illari
33.	Madrasai Muhammad Amin	1829-yil	Muhammad Amin	Dumullo Salimxon Oxund Mulla Hoshimxon Muhtasib o'g'illari
34.	Madrasai Eshon So'fiy Badal	1829-yil	Abdurahim binni Abdurahmon Eshon So'fiy Badal	Abdurahim binni Abdurahmon Eshon So'fiy Badal
35.	Madrasai Muhammadalixon	1831-yil	Muhammad Alixon Amir Umarxon o'g'illari	Sarimsoqxon Hojai Kalon Valixonto'ra Xo'qandiy
36.	Madrasai Pirmuhammad Yasovul	1831-yil	Pirmuhammad Yasovul Turdimuhammad Ponsodboshi o'g'illari	Domullo Shoabadaxon A'lam Domullo Shonosir o'g'illari
37	Madrasai Aminjonboy	1831-yil	Aminjonboy Karimjonboy o'g'illari	Mullo Yusufxon A'lam Domullo Yunusxon oxund o'g'illari
38.	Madrasai Hishtin	1831-yil	Abdurahmon Sharbatdor Abdurahimboy Karvon o'g'illari	Domullo Musoxon Mahzum Mullo Miris'hoqxon oxund o'g'illari
39.	Madrasai Sohivzoda hazrat	1832-yil	Muhammad Alixon Amir Umarxon o'g'illari	Domullo Halil Mullo Habibullo Mahzum o'g'illari
40.	Madrasai Dasturxonchi	1833-yil	Mahmud Dasturxonchi Muhammad Janoqi o'g'illari	Hamzaxon Domullo Abdulhamid o'g'illari
41.	Madrasai Mulla Hasanjon Hoji	1833-yil	Mulla Hasanjon Hoji Yalangto'sh Parvonachi o'g'illari	Domullo Akramxon oxund Domullo Akbarxon Mahzum o'g'illari
42.	Madrasai Mirjalil Xalifa	1834-yil	Mirjalil Xalifa Binni Mirbadal Xalifa	Mirjalil Xalifa Binni Mirbadal Xalifa

43.	Madrasai Mohlaroyim	1841-yil	Shoira Nodirabegim Rahmonqulibiy O'taliq qizlari	Eshon Valixon Oxund Musaxon Mahzum o'g'illari
44	Madrasai Chalpak	1844-yil	Yorqin Oyim To'xtanazarbiy Do'nan qizlari (Xudoyorxonning onalari)	Eshonxon Domullo Zard Usmonxon Eshon o'g'illari
45	Madrasai Valixonto'ra	1844-yil	Eshon Valixon To'ra Hojai Kalon Abdurrahim Xoji o'g'illari	Mulla Xojamnazar Mahdum Mulla Egamnazar oxund o'g'illari
46.	Madrasai Xalifa Safoxon To'ra	1845-yil	Xalifa Safoxon To'ra va o'g'illari Sayyid Abdulazizxon	Xalifa Safoxon To'raning o'zlari keyinchalik o'g'illari Sayyid Abdulazizxon
47.	Madrasai Arki Oliy	1845-yil	Sayyid Muhammad Xudoyorxon nomlaridan Musulmonquli Mingboshi Eshim otaliq o'g'illari	Domulla Zulfiqor a'lam Mavlaviy Aloiddin o'g'illari
48.	Madrasai Muhammad Muhammad rajab Qo'rboshi	1848-yil	Muhammad rajab Qo'rboshi Muhammad razzoq Devonbegi o'g'illari	Domullo Hasanxon a'lam Domullo Muhammad bashirxon mahzum o'g'illari
49.	Madrasai Hakim Xalifa	1849-yil	Hakim Xalifa Mullo Bahouddin o'g'illari	Hakim Xalifa Mullo Bahouddin o'g'illari
50.	Madrasai Muhammad Muhammad Sharif boy	1850-yil	Muhammad Sharif boy Muhammad Salimboy o'g'illari	Domullo Abdulxoliq Mahzum Domullo Abdulkarim Muftiy o'g'illari
51.	Madrasai Harifona	1857-yil	Mullo Abdulqosim Mahzum Mullo Abdulqayyum Oxund o'g'illari tashabbusi bilan hashar yo'li bilan qurilgan	Mullo Abdulqosim Mahzum
52.	Madrasai Xomta'ma	1858-yil	Sayyid Muhammad Xudoyorxon	Muhammad Yusufxon A'lam Muhammad Umarxon Sharbatdor o'g'illari
53.	Madrasai Mallaxon	1860-yil	Sayyid Malla Bahodirxon Sher Muhammad Alixon o'g'illari	Domulla Akobirxon oxund Domulla Akmalxon Sudur o'g'illari

54.	Madrasai Sohibzoda hazrat	1861-yil	Miyon Fazl Ahad Sohibzoda Hazrat	Xonadon egalari birin-ketin bajargan
55.	Madrasai Hokim Oyim	1869-yil	Xudoyorxon va Sulton Murodbek	Domullo Rahmatillo oxund Domullo Ne'matullo o'g'illari
56.	Madrasai O'rda	1870-yil	Sayyid Muhammad Xudoyorxon	Mullo Nurmuhammad Mahzum Domullo Gulmuhammad Oxund o'g'illari
57.	Madrasai Muhammad Olimboy	1872-yil	Olimjon xoji Muhammadjonboy o'g'illari	Domullo Fayzullo oxund Mullo Saydullo a'lam o'g'illari
58.	Madrasai Xalifa Oltmish	1872-yil	Abdurasul Eshon	Abdurasul Eshon
59.	Madrasai Sultonmurodbek	1872-yil	Sulton Murodbek Sheralixon o'g'illari	Domullo Shobarot Mahzum Shomahmud o'g'illari
60.	Madrasai Parvonachi	1874-yil	Xoliqnazar Parvonachi To'xtanazar Ponsod o'g'illari	Mullo Zohidjon a'lam Mullo Vohidjon o'g'illari
61.	Madrasai Kattaxo'ja eshon	1879-yil	Domullo Abussone'xoja Eshon	Domullo Abussone'xoja Eshon
62.	Madrasai Mamarasulboy	1881-yil	Mamarasulboy Mamaroziqboy o'g'illari	Mulla Sharafiddin Mahzum Mulla Kamoliddin Mirzo o'g'illari
63.	Madrasai Alixon Boyvachcha	1882-yil	Xoji Alixon Boyvachcha Sultonxon Karvon o'g'illari	Mullo Muhammad Razzoq Mullo Muhammad rajab o'g'illari
64.	Madrasai Oq to'nli azizlar	1891-yil	Muhyiddinxon Eshon Nuriddinxon Eshon o'g'illari tomonidan Solihjon Boyvachcha yordami bilan	Muhyiddinxon Eshon
65.	Madrasai Mirzayodgor	1805-yil	Muhammadquli Dodhoh O'tamquli o'g'illari	Mulla Suyarquli Mahzun Domullo Subhonquli oxund o'g'illari

“Ho‘qandi latif manoqiblari” kitobida madrasalar haqidagi ma’lumotlar sirasida yana har bir madrasadagi hujralar soni, tolibi ilmlar adadi, qachon qanday holatda buzib yuborilganligi yoki saqlanib qolganligi haqida mukammal ma’lumotlar yozilgan. Har bir madrasa haqidagi kichik matnning oxirgi jumllalarida “sho‘rolar hokimiyatining dastlabki yillarida buzib yuborilgan, fabrika qurilishi munosabati bilan buzib yuborilgan, buzib yuborilgan va o‘rni uy-joy qurilishi

uchun berilgan” kabi jummalarni o’qib chuqur o’yga tolasan kishi. Lekin shunday bo’lsa-da, Qo’qon shahrida sayyohlik majmualarining adadi bir talay topiladi. Saqlanib qolgan madrasalar, qadimiy masjidlar, saroylar, muqaddas qadamjolar kabilar shular jumlasidandir. Mana shu qolgan tarixiy obidalarini asrab-avaylash, ta’mirlash va sayyohlarga etarli sharoitlar yaratish yuqorida aytganimizdek davlatning iqtisodiy o’sishi va dunyoga mashxur bo’lishi uchun sabab bo’ladi, albatta.

Turkiy xalqlar adabiyotining rivojlanishi va butun dunyoga tanilishida adabiy muhitlarning, adabiyotga ixlosmand podshohlarning beqiyos xizmati bo’ladi. Qo’qon xonligi podshohlaridan Amir Umarxon va malika Nodirabegimlar xayrixohligi hamda homiyligi ostida rivojlangan Qo’qon adabiy muhitidan salmoqli ijod ahllari etishib chiqdi. Po’latjon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” tazkirasida 300 dan ortiq Qo’qon adabiy muhiti vakillari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Bu ijod ahllarining bizga qoldirgan adabiy me’rosini o’z holicha saqlash, avlodlarga etkazish shu bilan birga sayyohlarga namoyish etish Qo’qon shahrining yana bir sayyohlik imkoniyati hisoblanadi. Adabiy turizmda nafaqat adabiy me’ros ya’ni kitoblar, balki, tarixda yashab ijod etgan ijodkorlarning yashagan hamda ijod qilgan joylarini ham namoyish etilsa yanada qiziqarli bo’ladi, albatta. Sayyohlar ushbu joylarni ziyorat qilish orqali ularning ahamiyatini anglab etadilar va madaniy me’rosni avloddan avlodga etib borishiga ham zamin hozirlanadi.

Adabiy me’ros haqida gapirilganda qo’lyozmalar ham nazarda tutiladi. Sharq qo’lyozmalari asosan uchta tilda: arabiy, forsiy va turkiy tilda yozilgan. Bunday qo’lyozma manbalar respublikamizning ko’pgina hududlarida saqlanadi. Jumladan Toshkent, Samarqand, Buhoro, Qo’qon, Xiva shaharlarida adabiy markazlar qadimdan mavjud bo’lgan bo’lib, bu madaniy markazlarda adabiyot rivojlangan, adabiy asarlar yozilgan, ko’chirilgan va kitob qilib bosilgan. Jumladan, Xivada qo’lyozmalar yozilishidan tashqari Muhammad Rahimxon II davrida ilk toshbosma kitoblarni chiqarish ham yo’lga qo’yilgan.

Adabiy merosga oid manbalar Qo’qon shahrining turli adabiy maskanlarida saqlanadi. Qo’qon Davlat muzey qo’riqxonasida, G’afur G’ulom nomidagi Qo’qon adabiyot muzeyida, Qo’qon Allomalar muzeyida, Muqimiy muzeyida hamda Hamza Hakimzoda Niyoziy uy muzeyida saqlanayotgan adabiy manbalar shahar turizm imkoniyatlari rivojida muhim ahamiyatga ega. Biz mana shu adabiy manbalardan birining tadqiqi bo’yicha ilmiy ish olib bormoqdamiz. Tadqiqotimizni Qo’qon adabiy muhiti vakili bo’lgan shoir, hattot, ma’rifatparvar Mirzo Hayrullo Ho’qandiy hayoti va ijodiga bag’ishlaganmiz. Tadqiqotni “Mirzo Hayrullo Ho’qandiy adabiy merosining matniy tadqiqi” mavzusida olib bormoqdamiz. Mirzoning Qo’qon adabiy me’rosi uchun qo’shgan salmoqli hissi e’tirofga loyiqdir. “U 63 yillik umri davomida o’zidan boy adabiy me’ros qoldirdi. Zamona kulfatidan hayoti tahlikada otgan bo’lsada, xalqni ma’rifatli qilish yo’lida to’xtamadi. 1910-yilda o’zi o’qigan Buzrukxo’ja madrasasi qoshida yangi usuldagi maktab ochib, o’qituvchilik qildi. 1912-yilda mazkur maktab qoshida yangi usuldagi “Ma’rifat” nomli kutubxona, va nashriyot tashkil qildi.”[6,3] Mirzoning tarjimonlik faoliyati ko’lami ham oz emas. “Turkiy avvali ilm”, “Rahbari tadrish”, “Rahbari alifbo” darsliklarini tarjima qilib nashr ettirdi. “Gurba va mush” masalini, “Ixtiyoroti kamar”, “Hikmatnoma”, “Madhali finni nujum”, “Umdat ul islom”, “Lazzat un niso” asarlarini, shuningdek, Abdurahmon Jomiyning “Risolai muammo” asarini fors tilidan mohirona tarjima qildi.

Mirzo Xo’qandiy “Gulshani Mirzo” darsligi, “Gulshani xayol” darsligi, “Jumboq” majmuasi, “Tuhfat ul atvol” asari, “Axloqi zamima” asari, Bayoz she’rlar to’plami, “Mazluma qiz” pesasi kabi asarlarning muallifidir.

XVIII asrdan XX asr boshlarigacha bo’lgan ijodkorlarning aksariyati bir vaqtning o’zida mohir hattot ham edi. Jumladan Muqimiy, Furqatlar singari Mirzo Hayrullo Ho’qandiy ham hattot sifatida ko’p asarlarni, jumladan ustodi shoir Rojiyning “Zarbulmasal”ini, shogirdi Hamza Hakimzodaning “Yangi saodat”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Yashil gul”, “Sariq gul”, “Pushti gul”, “Safsar gul”, “Atir gul” asarlarini, shoir asos solgan va muharrirlik qilgan “Kengash”, “Hurriyat”

jurnallarini, do'sti Muhammadjon Holiqiyning "Rahbari tadris" darsligini husnixat bilan ko'chirib chiqdi[6,2]

Mirzoning jaliy (katta harflar bilan imoratlar peshtoqiga yoziladigan arab imlosidagi xatlar) xati bilan yozgan xattotlik ishlari ham bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor.

Tadqiqotimizda asosiy e'tiborni Mirzoning adabiy merosi tabdiliga qaratganmiz. Mirzoning bayozi jami 214 betdan iborat bo'lib, nasta'liq xatida yozilgan. Mirzoning adabiy merosi G'afur G'ulom nomidagi Qo'qon adabiyot muzeyida, Qo'qon Allomalar muzeyida (Mirzoning xat mashqlari va portreti), Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanadi. Adabiy merosning barchasi o'zbek tilida yozilgan.

Quyidagi jadvalda G'afur G'ulom nomidagi Qo'qon adabiyot muzeyida alohida xonada saqlanayotgan Mirzo Xayrullo Ho'qandiyga tegishli bo'lgan eksponatlarning saqlanayotgan holati haqidagi ma'lumotlarni taqdim qilamiz:

№	Eksponat nomi	Inventar raqami	Qog'ozi holati
1.	Bayoz	4060 P=6	Och sariq va qizil rangda. Eskirgan, lekin yirtilmagan. Oxirgi betiga oz-moz siyoh to'kilgan
2.	Yashil papka	4056	Eskirgan, oq chiziqlar tushgan
3.	Bir chiziqli daftar varog'idagi she'r. Varoqning ikkala tomoniga ham yozilgan	80/36	Eskirgan, uchta burchagi yirtilgan
4.	A4 farmat qog'ozidan ensizroq oq qog'oz. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/35	Eskirgan, pastki tomoni yirtilgan
5.	Katak daftar varog'i. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/34	Eskirgan, buklangan joylari yirtilish arafasida
6.	Daftar varog'idan kichikroq oq qog'oz. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/33	Buklangan joyi yirtilish arafasida
7.	Bir chiziqli daftar varog'i. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/32	Eskirgan. Chiziqlar ko'rinmay ketgan
8.	Daftardan kichikroq bir chiziqli bloknot o'rtasidan olingan varaq	80/29	Eskirgan, chiziqlari ko'rinmay ketgan
9.	Bloknot varag'i. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/30	Eskirgan. Bir burchagi yirtilgan
10.	Biror buyumni o'rash uchun ishlatilgan kata oq qog'oz. A4 farmat qog'ozining ikkitasicha keladi. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/31	Bir tomoninig burchagi yirtilgan
11.	Eni 10 cm uzunligi 60 sm bo'lgan oq qog'oz. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/28	Holati yaxshi saqlangan
12.	Bir chiziqli bloknot varag'i	80/27	Eskirgan. She'rning oxirgi 4 qatoriga siyoh to'kilib, o'qib bo'lmas holga kelgan

13.	Davomat jurnali uchun mo'ljallangan daftarning bir varag'i. Ikkala tomoniga ham she'r yozilgan	80/26	Bir yon tomoni kuya eb sarg'aygan
14.	A4 formatli qog'ozdan ensiz qog'oz. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/22	To'rttdan biri yo'q
15.	Davomat jurnali uchun mo'ljallangan daftarning bir varag'i. Ikkala tomoniga ham she'r yozilgan	80/46	Tepa va pastki tomonlari yirtilgan
16.	A4 formatli qog'ozdan ensiz qog'oz. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/20	O'rtasidan kattagina qismi yirtilganligi uchun matnni to'liq tiklashning imkoni yo'q
17.	Katak daftar varag'i. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/21	Eskirgan, kuya sarg'aytirgan. Bir burchagi yirtilgan
18.	Bir chiziqli bloknot varag'i. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/24	Eskirgan. Pastki qismida siyoh ellagan
19.	Bir chiziqli bloknot varag'i. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/25	Eskirgan
20.	Chiziqsiz bloknot varag'i. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/23	Eskirgan. Yonlari va burchaklari yirtilgan. Orqa tomonida kuya egan joyi bor.
21.	Biror buyumni o'rash uchun ishlatilgan kata oq qog'oz. A4 format qog'ozining to'rttasicha keladi. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/7	Sakkizga buklangan holatda ko'p turganligi uchun buklangan joylaridan yirtilish arafasida.
22.	Biror buyumni o'rash uchun ishlatilgan kata oq qog'oz. A4 format qog'ozining to'rttasicha keladi. Bir tomoniga she'r yozilgan	80/8	Sakkizga buklangan holatda ko'p turganligi uchun buklangan joylaridan yirtilish arafasida.
23.	Ingichka uzun qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/9	Bir burchagi sarg'aygan
24.	To'rtburchak qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/15	Teshik-teshik naqsh chizilgan
25.	To'rtburchak qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/16	Eskirgan
26.	To'rtburchak qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/17	Eskirgan. Yirtilgan
27.	To'rtburchak qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/18	Eskirgan. Yirtilgan
28.	Katak daftar varog'i. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/40	Eskirgan. Yirtilgan
29.	Katak daftar varog'i. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/43	Eskirgan. Yirtilgan

30.	Katak daftar varog'i. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/38	Eskirgan. Yirtilgan
31.	Katak daftar varog'i. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/37	Eskirgan. Yirtilgan
32.	To'rtburchak qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/3	Bir burchagi sarg'aygan
33.	To'rtburchak qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/2	Teshik-teshik naqsh chizilgan
34.	To'rtburchak qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/4	Eskirgan
35.	To'rtburchak qog'oz parchasi, bir tomoniga she'r yozilgan	80/10	Eskirgan. Yirtilgan
36.	Katak daftar varog'i. Ikkala tomoniga she'r yozilgan	80/11	Eskirgan. Yirtilgan

So'zimiz ko'proq Qo'qon shahridagi muzeylarning adabiy turizm imkoniyatlari haqida bo'lganligi uchun Qo'qon adabiyot muzeyi haqida ham biroz to'xtalib o'tmoqchimiz. Chunki tadqiq etayotganimiz Mirzo Hayrullo Xo'qandiy adabiy merosning ASOSIY QISM:i mana shu adabiyot muzeyida saqlanadi. Muzey 1961-yilda tashkil etilgan. 1966-yilda akademik shoir G'afur G'ulom muzey binosining tashkillanishida bosh-qosh bo'lganligi sabab G'afur G'ulom nomi berilgan. 1978-yildan Farg'ona viloyati adabiyot muzeyi deb yuritilgan. Hozirda Qo'qon Davlat muzey qo'riqxonasi filiali hisoblanadi. Muzey Qo'qon shahar Istiqlol ko'chasi 69-uyda joylashgan bo'lib, muzey binosi 1911-yilda qurilgan. Muzeyda hozirda maxsus qo'lyozmalar fondi mavjud bo'lib, bu qo'lyozmalar fondida 2460 ta qo'lyozma saqlanadi. Bular 77 ta muallif ijodiga mansub qo'lyozmalardir. Bularдан Alisher Navoiy, Fuzuliy, Xo'janazar Huvaydo, Boborahim Mashrab, Ahmad Yassaviy, Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Zavqiylar bilan birga Qo'qon adabiy muhitiga mansub shu kungacha irod qilib kelayotgan irod ahllarining asarlaridan namunalar o'rin olgan. Qo'qon adabiyot muzeyi birinchi rahbari filologiya fanlari doktori professor Sodirxon Erkinov bo'lib, 1963-yilgacha rahbarlik qilgan. Keyingi rahbar tarixchi va adabiyotshunos Solijon Yo'ldoshevdur. Bu inson Mirzo Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorixi Havoqand" nomli Qo'qon tarixiga bag'ishlangan asarini joriy alifboga tabdil qilib, rus tiliga tarjima qilgan va 2007-yilda nashr ettirgan. Uchinchi rahbar Filologiya fanlari nomzodi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Ahmadjon Madaminov bo'lib, bu inson ko'plab ilmiy maqolalar muallifidir. Haziniy bayozini va Mirzo Ho'qandiyning "Yigirma hikmat" va "Ahloqi zamima" asarlarini joriy alifboga tabdil qilib nashr ettirgan. Keyingi to'rtinchi rahbar Adabiyotshunos Ibrohimjon Bekmurodov hisoblanadi. U kishidan keyin Sharqshunos olim Sultonxon Sotvoldiev rahbarlik qilgan. Bu kishidan keyin hozirgi kungacha Filologiya fanlari nomzodi Abdulatif muzeyga Turdaliev rahbarlik qilib kelmoqda.

Xulosa: Mirzo asarlarini arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuvida yozilganini hisobga olsak, shahrimizga tashrif buyurgan inglizabon va rusiyabon sayyohlar uchun bu yozuvning tashqi ko'rinishi qiziq lekin, yozuvni o'qiy olmaslik va ma'nosini bilmaslik sayyohlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Lotin alifbosi xalqaro yozuv bo'lganligi uchun deyarli barcha insonlar bu alifboni o'qiy oladi. Shuni taklif qilamanki, arab yozuvidagi ya'ni eski o'zbek yozuvidagi asarni muzey eksponati qilib qo'yish bilan birga uning yoniga lotin alifbosidagi tabdilini va rus, ingliz tillariga qilingan tarjimalarini qo'yish sayyohlar tushinishi uchun alohida yaratilgan sharoit bo'lishi tabiiy va bu chet el sayyohlarida qiziqish uyg'otadi, yanada yorqinroq tushuncha paydo bo'ladi. Mening nazarimda turizmning adabiy turizm yo'nalishida hali amalga oshirilmagan tizimli ishlar bir talay. Mana shunday konferensiyalar ko'proq tashkil qilinib, ularda ma'ruza qilingan

maqolalarni ilmiy asosda o'rganib, taklif va mulohazalarni va fikrlarni hayotga tadbiq qilish O'zbekiston turizm sanoatining yanada rivojlanishida yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзаев М., Алиева М. Туризм асослари. - Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. -2011.
2. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. -Тошкент: Фан, 1996.
3. Дадабоев Я. (Муҳаммад Яҳёхон Хўқандий) Хўқанди латиф маноқиблари. – Тошкент: Маворуннаҳр, 2020.
4. Пўлатжон Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. –Тошкент: ЎзРФА Қўлғезмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998
5. Мирзо Хўқандий. Йигирма ҳикмат. “Тухфат ул-атвол” (Болалар совғаси) –Тошкент: Ёзувчи, 1992.
6. Мирзо Хўқандий. Ахлоқи замима. Тошкент: Ёзувчи нашриёти, 1994.
7. Қобилова,З. (2024). АЛИШЕР НАВОИЙ АДАБИЙ МЕРОСИНИНГ ОЗАРБАЙЖОНДА ЎРГАНИЛИШИ. *Ҳамкор конференциялар*, 1(1), 215-219.
8. Tursunova, N. FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 2021.

YOZUVCHILAR IJODINI TANITISH ORQALI ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

Ergasheva Sug'diyona

Qo'qon universiteti tayanch
doktoranti

Annotatsiya Maqolada adabiy turizm va uning turizm sohasida tutgan o'rni, yozuvchilarning ijodini tanitish orqali rivojlantirish yo'llari, sayyohlarga yaratilayotgan qulayliklar, global adabiy festivallar tashkil etish, innovatsion texnologiyalar va raqamli marketingdan foydalanish usullari, tarjimashunoslik sohasidagi yangiliklar va uning adabiy turizm rivojlanishida turgan o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: adabiy turizm, SWF, GOLDEN WORD, raqamli texnologiya, kontent marketing, virtual sayohat, tarjimashunoslik, adabiy tarjima.

Kirish: Bugungi globallashuv davrida turli madaniyatlarni o'rganish va tanishtirish usullari sezilarli darajada o'zgarmoqda. Adabiy turizm eng muhim va zamonaviy yo'nalishlardan biri bo'lib, yozuvchilarning ijodiy merosi orqali madaniy almashinuvga yangicha nuqtai nazardan yondashadi, uning asosiy maqsadi yozuvchilar, she'riyat va adabiy meros bilan chambarchas bog'langan joylarni ziyorat qilish orqali sayyohlarni ularga bo'lgan qiziqishini oshirishdir.

Adabiy turizm klassik sayohatlardan farq qiladi u faqatgina yozuvchilarning tug'ilgan joylari va yashagan uylari, mashhur adabiy asarlar yozilgan manzillar yozuvchilarning uy muzeylari, tarixiy adabiy obyektlarni sayr qilish emas, balki yozuvchilarning ichki dunyosiga sayohat qilishdir. Adabiy turizm sayyohga oddiy sayohatdan ko'ra yangi madaniyatlar haqida atroflicha ma'lumot olish, ularning o'ziga xos jihatlarini tushunish, tarixiy shaxslar va ijodkorlarning hayot yo'lini o'rganish, dunyoqarashni kengaytirish, asarlarning geografik va tarixiy kontekstini his qilish va eng asosiysi insoniy qadriyatlarni chuqurroq anglab yetish va yozuvchilarning ijodiy dunyosiga kirib borish kabi keng imkoniyatlar, noyob va qimmatli tajribalar beradi.

Asosiy qism: Bugungi kunda davlatimiz rahbari boshchiligidagi turizm sohasida yirik islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, viza rejimi soddalashtirildi, ayni paytda 93 dan ortiq xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish, shuningdek, 76 davlat uchun turistik viza berishning